

## BOKS BO‘YICHA 2023-YILGI JAHON CHEMPIONATI NATIJALARI

*Akramov Ilxomjon Ixtiyorjon o‘g‘li*

*O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti*

*Yakkakurash sport turlari fakulteti*

*Boks, kikkoks, muay tay nazariyasiva uslubiyati kafedasi o‘qituvchisi*

*E-mail: [i.akramov2496@gmail.com](mailto:i.akramov2496@gmail.com) Tel: +99890 629 89 99*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boks bo‘yicha jahon chempionati natijalari tahlil qilingan. Unda yurtimiz bokschilari, jahon boksi yulduzlari, shuningdek, har bir vazn toifalarida yangi g‘olib bo‘lgan sportchilarning muvaffaqiyat va mag‘lubiyatlari ko‘rib chiqilgan. Maqolada boksdagi barcha vazn toifalaridagi natijalarga e‘tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** natijalar, boks bo‘yicha jahon chempionati, g‘alaba, mag‘lubiyat, tahlil, murabbiy, musobaqa.

### ИТОГИ ЧЕМПИОНАТА МИРА ПО БОКСУ 2023 ГОДА

**Аннотация:** В данной статье проанализированы результаты чемпионата мира по боксу. В нем рассматриваются успехи и поражения отечественных боксеров, звезд мирового бокса, а также спортсменов-новичков в каждой весовой категории. В статье рассмотрены результаты всех весовых категорий в боксе.

**Ключевые слова:** результаты, чемпионат мира по боксу, победа, поражение, анализ, тренер, соревнования.

### RESULTS OF THE 2023 WORLD BOXING CHAMPIONSHIP

**Abstract:** This article analyzes the results of the World Boxing Championship. It examines the successes and defeats of domestic boxers, world boxing stars, as well as beginner athletes in each weight category. The article examines the results of all weight categories in boxing.

**Keywords:** results, boxing World Championship, victory, defeat, analysis, coach, competitions.

Mustaqillik yillarida yurtimizda jismoniy tarbiya va sport sohasini ommalashtirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. So‘nggi 10-yillikda sohada yetuk sportchilar, hakamlar hamda murabbiylarni tayyorlash sistemasi yo‘lga qo‘yildi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, har

tomonlarni rivojlangan yoshlarni tarbiyalash, respublikada jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirishga har tomonlarni hissa qo'shmoqda.

O'zbekiston respublikasi prezidentining 2021-yil 29-aprelda imzolagan "Boksni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5099-sonli qarori yoshlar, ayollar va bolalarni boks bilan shug'ullanishga jalb etishga qaratilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bunga asos bo'lib xizmat qiladi [1].

Yurtimiz bayrog'ini xalqaro arenalarda himoya qilayotgan sportchilarimiz sportga berilayotgan e'tibor qanchalik kuchli ekanligini o'zlari ishtirok etgan musobaqalarda qayd etayotgan natijalari bilan isbotlab kelishmoqda. Bunga misol qilib Rio-de-Janeiro shahrida (Braziliya) o'tkazilgan XXXI-Olimpiada o'yinlarida charm qo'lqop ustalarimiz umumjamoa xisobida I-o'rinni qo'lga kiritgani, Yekaterinburg shahri (Rossiya Federatsiyasi) mezbonlik qilgan boks sporti bo'yicha XX-jahon chempionatlarini ko'rsatishimiz mumkin.

Mamlakatimizda yoshlarning boksga bo'lgan ommaviy qiziqishini inobatga olib, iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) tizimini yanada takomillashtirish, soha mutaxassislarini tayyorlash va ularning moddiy rag'batlantirilishini yaxshilash, shuningdek, o'zbek boksining dunyodagi yetakchiligini saqlab qolish va davom ettirish yo'lga qo'yilgan.


Joriy yilning 30-aprel 14-may kunlari Toshkent shahri mezbonlik qilgan jahon chempionatida 107 ta davlatdan 538 nafar sportchi g'oliblik uchun kurash olib bordi. Musobaqa sovrin jamg'armasining umumiy miqdori rekord darajadagi 5.200.000 \$ AQSH dollarini tashkil etdi. Bu esa sportchilarda g'oliblikka bo'lgan ishtiyoqni yanada kuchaytirdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Yurtimizda tashkil etilgan jahon chempionati sportchilar hamda sport ixlosmandlarida iliq tasurot qoldirdi.

Musobaqa natijalariga qaraydigan bo'lsak sportchilar 13 ta vazn toifasida 52 ta (13 ta oltin, 13 ta kumush va 26 ta bronza) medallari uchun baxs olib bordi. Musobaqa yakuniy medallar jamg'armasiga nazar soladigan bo'lsak 18 ta davlat bokschilari sovrindorlar qatoridan joy olib shoxsupaga ko'tarilgan bo'lsa 89 ta davlat bokschilari musobaqani saralash bosqichida yakunlashdi. O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zolari 9 ta (5 ta oltin, 2 ta kumush va 2 ta bronza) medalga ega chiqib birinchi o'rinni egallashdi. Qozog'iston terma jamoasi 5 ta (4 ta oltin va 1 ta kumush) medal bilan ikkinchi o'rinni egallagan bo'lsa kuchli uchlikka Rossiya Federatsiyasi terma jamoasi bokschilari 6 ta (2 ta oltin va 4 ta bronza) medal bilan yakun yasab berdi. Shuningdek Kuba hamda Fransiya terma jamoalari musobaqada bittadan otin medalni qo'lga kiritishdi.

**Boks bo'yicha jahon chempionatidagi medallar jamg'armasi**

O'rin	Davlat	Oltin	Kumush	Bronza	Jami
1.	O'zbekiston	5	2	2	9
2.	Qozog'iston	4	1	0	5
3.	Rossiya	2	0	4	6
4.	Kuba	1	3	2	6
5.	Fransiya	1	1	1	3
6.	Gruziya	0	1	2	3
7.	Ozarbayjon	0	1	1	2
	Braziliya	0	1	1	2
	Mug'uliston	0	1	1	2
10.	Xitoy	0	1	0	1
	Italiya	0	1	0	1
12.	Xindiston	0	0	3	3
	Ispaniya	0	0	3	3
14.	Armaniston	0	0	2	2
15.	Iordaniya	0	0	1	1
	Qirg'iziston	0	0	1	1
	Meksika	0	0	1	1
	Tojikiston	0	0	1	1

O'zbekiston terma jamoasining tayyorgarligi alohida e'tirofga loyiq, chunki yurtimiz mustaqil bo'lganidan hozirgi vaqtgacha hech bir jahon chempionatida 5 ta oltin, 2 ta kumush va 2 ta bronza medali qo'lga kiritilmagan. Terma jamoamiz safida Hasanboy Do'stmatov (51 kilogaramgacha), Abdumalik Xalakov (57 kilogaramgacha), Ruslan Abdullayev (63,5 kilogaramgacha), Asadho'ja Mo'ydinho'jayev (67 kilogaramgacha) va Bahodir Jalolov (92 kilogramdan yuqori) bo'lgan vazn toifalarida oltin medalini qo'lga kiritishdi. Oybek Jo'rayev (54 kilogaramgacha) va Saidjamshid Jafarov (71 kilogaramgacha) bo'lgan vazn toifalarida kumush medalga ega chiqishgan bo'lsa A'loxon Abdullayev (75 kilogaramgacha) hamda Lazizbek Mullojonov (92 kilogaramgacha) bo'lgan vazn toifalarida bronza medali sovrindori bo'lishdi. Ushbu tarixiy natijada terma jamoa murabbiylarining xususan terma jamoa bosh murabbiyi To'qin Qilichev katta murabbiylar Raxmatjon Ro'zioxunov va Farrux Qilichevlarning xissasi beqiyos bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.



**1-rasm. Umumjamoa xisobida jangʻarilgan medallar diagrammasi**

Bokschilarimiz erishgan yutuqlarini tahlil qiladigan boʻlsak 51 kilogramgacha (birinchi yengil vazn) boʻlgan vazn toifasida gʻolib boʻlgan bokschimiz Xasanboy Doʻstmatov finalgacha boʻlgan yoʻlda oʻz vazn toifasidagi nomdor sportchilarni magʻlubiyatga uchratdi. Bular 51 kilogramgacha boʻlgan vazn toifasida amaldagi jahon chempioni, Tokyo 2020 Olimpiadasi bronza medali sovrindori Saken Bibosinov (Qozogʻiston), 54 kilogramgacha boʻlgan vazn toifasida amaldagi jahon chempioni Tomoya Tsuboi (Yaponiya) kabi raqiblarini magʻlubiyatga uchratdi. Finalda esa 2019-2021-yilgi jahon chempionatlari bronza medali sovrindori Billal Bennama (Fransiya) ustidan 1-raunddagi texnik nokaut evaziga gʻalaba qozondi hamda faoliyati davomidagi ilk jahon chempionligini qoʻlga kiritdi.

Jahon chempionatining kashfiyotlaridan biri boʻlgan hamyurtimiz Oybek Joʻrayev 54 kilogramgacha (yengil vazn) vazn toifasida finalga qadar yetib keldi. Hamyurtimiz chorak finalda Gabriel Eskobarga (Ispaniya) jang olib borib hakamlarning yakdil qarori bilan (5:0) xisobida gʻalaba qozondi. Yarim finalda qarshi tajribali Dmitriy Dvalini (Rossiya) hakamlarning qaroriga koʻra (2:5) xisobida magʻlubiyatga uchratdi. Finalda 2021-yil Belgraddagi (Serbiya) jahon chempionatining kumush medali sohibi, tajribali Maxmud Sabirxan raqiblik qildi. Toʻliq davom etgan jangda Maxmud Sabirxan jismonan va ruhan teyyor ekanligini koʻrsatib Oybekni magʻlub etdi.

XXI-jahon chempionatida kumush medali bilan kifoyalangan bokschimiz Abdumalik Xalakov joriy yilgi jahon birinchiligida ham 57 kilogramgacha (yarim yengi vazn) vazn toifasida bahs olib borib chempionlikni qo‘lga kiritdi. Finalgacha bo‘lgan yo‘lda barcha raqiblarni saralash bosqichlarida (5:0) xisobida birin ketin mag‘lubiyatga uchratdi. Chorak finalda Iordaniyalik Yusuf Lashashni hakamlarning qaroriga ko‘ra bir ovozdan (5:0) xisobida mag‘lubiyatga uchratdi. Yarim finalda Qirg‘izistonlik Munarbek Saitbek Uluni texnik mag‘lubiyatga uchratdi. Finalda to‘liq davom etgan bellashuvda Kubalik Saidel Hortani (5:0) xisobida mag‘lubiyatga uchratdi.

Birinchi yarim o‘rta vaznda bahs olib borgan (63,5 kilogramgacha) Ruslan Abdullayev ham yarim finalgacha to‘rtta jangda g‘alaba qozonib yarim finalda Armanistonlik Hovhannes Bachkovni (5:0) xisobida mag‘lubiyatga uchratdi. Finalda Chinzorig Baatarsukhiinni (Mug‘uliston) ham (5:0) xisobida yengdi.

Asadxo‘ja Mo‘ydingxo‘jayev ham jahon chempionatida mezbon kimligini ko‘rsatib qo‘ydi. Chempionlik uchun kurashni saralash bahslaridan boshlagan bokschimiz qiyinchiliksiz chorak finalga qadar yetib keldi. Qiyin kechgan chorak finalda tajribali Roniel Iglesiasni (Kuba) (3:4) xisobida mag‘lubiyatga uchratdi. Yarim finalda (5:0) xisobida Battomoriin Misheltni (Mug‘uliston) yengib finalga chiqdi. Musobaqada 67 kilogramgacha bo‘lgan vazn toifasida chempionlik jangida o‘zi uchun prinsipial raqib bo‘lgan Qozog‘istonlik Dulat Bekbauovni ham (5:0) xisobida mag‘lub etib chempionlik shoxsupasiga ko‘tarildi.

Terma jamoamizning yana bir vakili 71 kilogramgacha bo‘lgan vzan toifasida jang olib borgan Saidjamshid Jafarov ham musobaqada yarim finalga qadar 4 ta jangni o‘z foydasiga hal qildi. Yarim finalda Wanderson de Oliveyrani (Braziliya) hakamlar qaroriga ko‘ra (4:1) xisobida mag‘lubiyatga uchratdi. Finalda Qozog‘istonlik Aslanbek Shimbergenovga mag‘lubiyatga uchradi hamda musobaqani kumush medali bilan yakunladi.

Terma jamoamizning eng yosh bokschisi A‘loxon Abdullayev 75 kilogramgacha bo‘lgan vazn toifasida g‘oliblik uchun kurash olib borib o‘zi uchun kattalar o‘rtasidagi yirik musobaqada bronza medalini qo‘lga kiritdi. Yarim finalda hakamlarning qaroriga ko‘ra (1:4) xisobida Braziliyalik Vanderley Pereyraga mag‘lubiyatga uchradi.

Farg‘ona boks maktabi tarbiyalanuvchi bo‘gan Lazizbek Mullojonov jahon chempionatida 92 kilogramgacha bo‘lgan vazn toifasida bahs olib bordi. Lazizbek ham jahon chempionatidagi yurishini yarim finalda to‘htatdi. Qiyin kechgan chorak final bahsida ikki karra Olimpiada o‘yinlari chempioni, besh karra jahon chempioni Kubalik Xulio Sezar La Krusni (1:4) xisobida hakamlar qarori evaziga mag‘lubiyatga uchratdi. Yarim finalda 2020-yilgi Tokio Olimpiadasi kumush medali sohibi, 2019-yilgi jahon

championati g‘olibi Rossiyalik Muslim Gadjimagomedovga mag‘lub bo‘ldi. Shu tariqa Lazizbek musobaqada bronza medalini qo‘lga kiritdi.

Ushbu musobaqada o‘ta og‘ir vazn toifasida jang olib borgan bokschimiz Bahodir Jalolov g‘oliblikni qo‘lga kiritdi va 2012-yilgi Olimpiada o‘yinlari bronza medali sohibi Abbos Atoyev singari ikki karra jahon chempioni degan unvonga sazovor bo‘ldi. Musobaqa davomida 5 ta jang olib borishi kerak bo‘lgan bokschimiz janglarning ikkitasida to‘liq 3 raund jang qildi qolgan uchta jangda raqiblari bokschimizga munosib qarshilik ko‘rsata olishmadi. Yarim finalda bokschimizga raqiblik qilishi kerak bo‘lgan Ispaniyalik Ayub Gadfa jaroxat sabali yarim finalda jang qilmagan bo‘lsa finalda Kubalik Fernando Arzola bokschimizga qarshi bir raund ham jang qila olmadi. Shu tariqa poytaxtimiz mezbonlik qilgan jahon chempionatida O‘zbekiston terma jamoasi umumjamoa xisobida birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Xulosalar:

Mamlakatimizda boks sportini yanada rivojlantirish qayd etilgan natijalarni yanada ko‘tarish hamda xalqaro arenalarda yuqori natijalar qayd etish uchun jahon boksida yetakchi bo‘lgan mamlakatlar bilan qo‘shma o‘quv-yig‘in mashg‘ulotlarini tashkil etish kerak ekani ma’lum bo‘ldi.

Yurtimizda boks sport turi bo‘yicha xalqaro musobaqalarga ko‘proq mezbonlik qilish orqali yoshlarda ushbu sport turiga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish kerak degan xulosaga kelindi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2021-yil 29-aprelda imzolagan “Boksni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5099-sonli qarori.  
<http://www.lex.uz>
2. <https://t.me/boxinguzbekistan>
3. <http://olympicboxing.uz/>
4. <https://www.iba.sport/news/champions-are-crowned-and-honored-at-the-iba-mens-world-boxing-championships-in-tashkent/>